PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA AYOL PROTATIPI: NAZARIY VA EMPIRIK IZLANISHLAR ASOSIDA

Umaraliyeva Iroda Muhammadaliyulmurtoza qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro unversiteti

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:**Muxammadiyeva Munira**

doi.org/10.5281/zenodo.20035788

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hayotida va ijodida ayol protatipi tushunchasi keng va chuqur tahlil qilinadi. Maqola nazariy asoslar, klassik va zamonaviy adabiy hamda psixologik yondashuvlar, mintaqaviy va milliy tadqiqotlar, shuningdek, empirik natijalar hamda tanqidiy baholarni o‘z ichiga oladi.Abdulla Qahhor asarlarida tasvirlangan ayol obrazlarining prototiplari, ularning hayotiy asoslari hamda badiiy talqini tahlil qilinadi. Natijada, ayol protatipining Qahhor ijodida tutgan o‘rni va uning adabiyotdagi ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, ayol protatipi, adabiyot, realizim,ruhiyat,ijitimoiy muamo.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the concept of the female prototype in the life and works of Abdulla Qahhor. The study encompasses theoretical foundations, classical and contemporary literary and psychological approaches, regional and national research, as well as empirical findings and critical evaluations. The depiction of female characters in Qahhor's works, their formation, and the influence of the writer's personal experiences with women are examined from historical and modern perspectives. Ultimately, the significance of the female prototype in Qahhor's oeuvre and its importance in literature are elucidated.

Keywords: Abdulla Qahhor, female prototype, literature,psychology.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ понятия женского прототипа в жизни и творчестве Абдуллы Каххара. Исследование охватывает теоретические основы, классические и современные литературные и психологические подходы, региональные и национальные исследования, а также эмпирические результаты и критические оценки. Рассматриваются женские образы в произведениях Каххара, их формирование и влияние личных переживаний писателя, связанных с женщинами, в историческом и современном аспектах. В результате выявляется место женского прототипа в творчестве Каххара и его значение в литературе.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, женский прототип, литература, психология

KIRISH: Barcha xalqlar adabiyotini kuzatadigan bo‘lsak, qadimdan ayol obrazi kulminatsion darajaga ko‘tarilganligining guvohi bo‘lamiz. Ertaklardan tortib to zamonaviy adabiyotimizdagi Kumushbibi-yu Zaynab , Zebi-yu Zabarjadlar qaysidir jihatlari bilan adabiyotimizda milliy o‘zligimizni anglatadigan asosiy obrazlar sifatida yashab kelmoqda . Shu nuqtai nazardan, ayol obrazlari va ularning protatipi har bir yozuvchining ijodiy olamida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Abdulla Qahhor ijodi va hayoti, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos realizm va ijtimoiy-psixologik yondashuv bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Abdulla Qahhor hayotidagi va ijodidagi ayol protatipi masalasi nazariy va empirik asoslarda ko‘rib chiqiladi. Bunda tarixiy va zamonaviy adabiy

jarayonlar, psixologik yondashuvlar, mintaqaviy va milliy tadqiqotlar hamda tanqidiy baholar keng qamrab olinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – Qahhor asarlarida ayol protatipining qanday shakllangani, uning yozuvchining shaxsiy hayoti bilan qanday bog‘liqligi, shuningdek, bu protatipning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISIM: XX asrning dastlabki yillarida ham o‘zbek adabiyotida ayollar obraziga murojaat qilish, ayol obrazlarining turfa qiyofalarini yaratish nasriy asarlarimizda ham ko‘rina boshladi. Ayol protatipi tushunchasi adabiyotshunoslik va psixologiyada yetarlicha murakkab va ko‘p qirrali fenomen sifatida qaraladi. Uning nazariy asoslari, avvalo, klassik adabiy-estetik va sotsiologik yondashuvlarda shakllangan bo‘lib, bunday yondashuvlar ayol obrazining jamiyatdagi roli, ijtimoiy ong va shaxs psixologiyasi bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. O‘zbek adabiy muhitida ayol protatipining shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos bosqichlarni bosib o‘tgan. O‘zbek klassik adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy, Ogahiy, Furqat asarlarida ayol obrazi ko‘pincha idealizatsiyalangan, ma’naviy poklik, fidoyilik va go‘zallik timsoli sifatida tasvirlangan. Biroq, XX asr o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, jadidlar davrida va undan keyingi modernistik yo‘nalishlarda ayol protatipi murakkablashib, ayolning real hayotdagi ijtimoiy mavqei, psixologik kechinmalari, oilaviy va shaxsiy muammolari chuqurroq tahlil qilingan[1:48]. Jadid adabiyotida ayol protatipi ko‘proq milliy uyg‘onish va ma’rifiy ildizlarga ega bo‘lib, ayolning ijtimoiy faolligi, o‘zligini anglash, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni kabi masalalar ilgari surilgan. Ayniqsa,Qahhor asarlarida ayol prototiplari, avvalo, xalq ichidan olinganligi bilan ajralib turadi. “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Anor” kabi hikoyalarda ayollar oddiy turmush tashvishlari bilan yashovchi, ammo katta sabr va matonat egasi sifatida ko‘rsatiladi. Bu obrazlar orqali yozuvchi o‘zbek ayolining ijtimoiy holatini ochib beradi.

Yozuvchi ayollarning ichki dunyosini tasvirlashga katta e’tibor qaratadi. Ularning iztiroblari, orzu-umidlari va ichki qarama-qarshiliklari juda nozik psixologik tahlil orqali ochiladi. Bu jihat ayol obrazlarining prototiplari real hayotdan olinganini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu obrazlar bir yo‘la an’anaviy qadriyatlar va zamonaviylik, sadoqat va isyon, fidoyilik va o‘zini anglash singari ziddiyatli xususiyatlar bilan boyitilgan. Qahhor ayol obrazlarini idealizatsiyalashdan ko‘ra, ularning hayotiy muammolari, ichki ziddiyatlari, jamiyat va oiladagi o‘rni, shaxsiy kechinmalari va orzu-umidlari orqali tasvirlaydi. Bu esa uning ayol protatipiga bo‘lgan yondashuvini realizm va psixologik chuqurlik bilan ajratib turadi. Nazariy jihatdan ayol protatipi tushunchasining asoslari sotsiologiya va psixologiyaning turli maktablarida ham keng o‘rganilgan. Masalan, K. G. Jungning arxetip nazariyasida «ona», «sevuvchi», «qahramon» singari arxetiplar orasida ayol protatipi markaziy o‘rin tutadi. Jungga ko‘ra, har bir jamiyat va shaxs ongida ayol protatipi arxetipik asosga ega bo‘lib, u inson ong ostida avlodlar davomida shakllangan qadriyat va mavhum tasavvurlar bilan bog‘liq[2:120]. Bu nazariya Qahhor asarlaridagi ayol obrazlarining ham universal, ham milliy xususiyatlarini anglash imkonini beradi. Chunki Qahhor asarlarida ayol protatipi bir vaqtning o‘zida ona, fidoyi, muallima, sevuvchi, azob chekkan, baxtga intiluvchi va ba’zan jamiyatga norozilik bildiruvchi obrazlarda namoyon bo‘ladi. Bu esa, Jung arxetiplariga mos holda, ayol protatipining ijtimoiy va psixologik ildizlarini ochib beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Qahhor asarlaridagi ayol protatipi masalasi ko‘plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. Jumladan, A. Murodov, M. Nurmuxammadov, L.To‘xtasinova kabi olimlar Qahhor ijodida ayol obrazlarining shakllanishi, ularning ijtimoiy va psixologik mazmuni, yozuvchining shaxsiy hayotidagi ayollar bilan bog‘liq tajribalarini o‘rganishgan. A.Murodov o‘z tadqiqotlarida Qahhor asarlaridagi ayol obrazlarini uch asosiy guruhga bo‘ladi: an’anaviy ayollar, zamonaviy ayollar va o‘zini anglashga intiluvchi ayollar. Unga ko‘ra, Qahhor asarlarida ayol protatipi har doim jamiyatdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy muammolar va shaxsiy kechinmalar bilan bog‘liq holda rivojlanadi[3:67]. M. Nurmuxammadov esa Qahhor asarlaridagi ayol obrazlarini yozuvchining shaxsiy hayot tajribalari bilan bog‘liq holda tahlil qilib, ularning protatip sifatidagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, Qahhor hayotida ona, rafiqa, opa-singil, do‘st va hamkasb ayollar

muhim o‘rin tutgan va ular yozuvchining ayol obrazlarini yaratishida protatip sifatida xizmat qilgan. Adabiy-psixologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qahhor asarlaridagi ayol protatipi ko‘p hollarda real hayotdagi ayollar prototipidan kelib chiqqan. Empirik tadqiqotlar, ya’ni yozuvchining shaxsiy xotiralari, zamondoshlari, do‘stlari va yaqinlarining esdaliklari, Qahhor hayotida ayol protatipining shakllanishida real voqealar va insoniy munosabatlar muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Masalan, Qahhorning onasi va rafiqasi, opa-singillari, ijodiy do‘stlari bo‘lgan ayollar, ularning hayot tarzi, kechinmalari va jamiyatdagi o‘rni yozuvchi uchun muhim ilhom manbai bo‘lgan. Shuningdek, Qahhor o‘z zamonasidagi ijtimoiy muhit, ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy va oilaviy muammolari, gender tengligi masalalariga ham chuqur e’tibor qaratgan. Bu esa, yozuvchining asarlarida ayol protatipining realistik va empirik asosda shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Tanqidiy yondashuvlar nuqtai nazaridan, Qahhor asarlaridagi ayol protatipi bir necha bor bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Ba’zi tadqiqotchilar Qahhor asarlarida ayol obrazlari yetarlicha mustaqil emas, balki erkak obrazlari soyasida va an’anaviy gender rollar doirasida qolib ketganini ta’kidlashadi. Ularning fikricha, Qahhor asarlarida ayol protatipi ko‘proq ona, fidoyi, sadoqatli rafiqa yoki azob chekkan ayol obrazlari bilan chegaralanadi. Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha, Qahhor asarlarida ayol protatipi zamonaviylik, mustaqillik, o‘zini anglash va jamiyatda faol bo‘lish motivlari bilan boyitilganini, ularning o‘z hayot yo‘lini tanlashga intilishi, ijtimoiy to‘siqlarga qarshi kurashishi, ba’zan esa jamiyatga norozilik bildirishi orqali yangi ayol protatipi shakllanganini ta’kidlaydilar. Bu ikki yondashuv o‘rtasida muvozanatni topish, Qahhor asarlaridagi ayol protatipining chinakam realistik va zamonaviy xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega[5:101].

Qahhor asarlarida ayol protatipining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy tarixiy kontekst ham muhim rol o‘ynaydi. XX asr boshlarida O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy mavqei, gender tengligi, ma’rifiy harakatlar, yangi hayotga intilish jarayonlari kuchaygan edi. Bu jarayonlar Qahhor asarlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, «Qo‘shchinor chiroqlari» romanida ayol protatipi yangi jamiyat qurilishida faol ishtirok etuvchi, o‘z hayot yo‘lini tanlashga intiluvchi, zamonaviy bilim va ma’rifatga ega ayol obrazida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Qahhor asarlarida an’anaviy ayol protatipi, ya’ni ona, fidoyi rafiqa, sadoqatli qiz obrazlari ham o‘z o‘rnini saqlab qoladi. Bu esa, yozuvchining ayol protatipiga yondashuvi kompleks va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi[6:210].

Empirik tadqiqotlarda Qahhor asarlaridagi ayol protatipi real hayotdagi ayollar hayoti, ularning ijtimoiy va oilaviy muammolari, psixologik kechinmalari asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Qahhorning yaqin do‘stlari, zamondoshlari va oila a’zolari bilan olib borilgan suhbatlar, arxiv materiallari, yozuvchining xotiralari va zamonaviy adabiyotshunoslik tahlillari Qahhor hayotida ayol protatipining shakllanishida real voqealar va shaxsiy tajribalar muhim ahamiyat kasb etganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Qahhor asarlarida ayol protatipi faqatgina ma’naviy yoki ijtimoiy rol emas, balki insoniylik, fidoiylik, baxtga intilish, sadoqat va mustaqillik timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar Qahhor asarlarining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilaydi.

Tanqidiy tahlil natijasida aniqlanishicha, Qahhor asarlarida ayol protatipi universal va milliy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. U bir vaqtning o‘zida ona, fidoyi, sadoqatli rafiqa, zamonaviylikka intiluvchi, o‘zini anglashga harakat qiluvchi, jamiyatga norozilik bildiruvchi ayol obrazlarida namoyon bo‘ladi. Bu esa, Qahhor asarlarida ayol protatipining murakkab va ko‘p qirrali xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Yozuvchining shaxsiy hayotidagi ayollar – ona, rafiqa, opa-singillar, ijodiy do‘stlar va hamkasblar – ularning hayoti va kechinmalari Qahhor uchun muhim protatip manbai bo‘lgan. Shu bilan birga, Qahhor asarlarida ayol protatipi ijtimoiy va tarixiy kontekst, zamonaviylik va an’anaviylik, psixologik va sotsiologik omillar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan[4:89].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, Abdulla Qahhor hayotida va ijodida ayol protatipi masalasi ko‘p qirrali, murakkab va zamonaviy adabiyotshunoslik uchun dolzarb

mavzulardan biridir. Uning asarlarida ayol protatipi real hayotdagi ayollar prototipidan kelib chiqqan, ijtimoiy va tarixiy kontekst, psixologik va ma'naviy omillar bilan boyitilgan, zamonaviylik va an'anaviylik ziddiyatlarida namoyon bo'lgan. Bu esa Qahhor asarlarining o'zbek adabiyotida ayol protatipi masalasida yangi bosqich boshlab berganini ko'rsatadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor ijodi XX asr dolzarb muammolarni olib chiqa oladi. Qahhor takrorlanmaydigan va ideal qahramonlarni yaratadi. Qahhor jonkuvar ijodkor adabiyotimizga o'z hissasini qo'shgan ijodkorlar qatorida turadi. Qahhor ijodiga ta'rif berilganda: fikrga saxiy, so'zga xasis san'atkor deya ta'riflanadi. Sarlardagi naflislik, o'ziga xoslik, jozibadorlik va rang-barangligi bilan o'ziga tortib turadi. G'ofur G'ulom shunday ta'rif beradi: "Abdullaning siqiqligi menga juda yoqadi. Abdulla boshqalar bir sahifada aytadigan gapni bir gapda aytib qo'yadi". Darhaqiqat, Qahhor kitobxonlarni o'ylashga majbur qila oladigan ijodkordir. O'zi ham talabchan, o'zgalardan ham talabchan bo'lishini xohlaydi. Bugungi kunga kelib Qahhor ijodi kitobxonlar tomonidan sevib o'qib kelinmoqda. Uning asarlari sodda va tushunarli tilda yozilgan asarlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xtasinova L. O'zbek adabiyotida ayol obrazi. – Toshkent: Fan, 2014. – 148 b.
2. Jung, C. G. Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton: Princeton University Press, 1981. – 451 p.
3. Murodov A. Abdulla Qahhor ijodida ayol obrazi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 128 b.
4. Nurmuxammadov M. Qahhor hayotiy tajribasi va adabiy obrazlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.
5. Qodirova D. Abdulla Qahhor asarlarida realizm va psixologizm. Samarqand: Zarafshon, 2020.-152 bet
6. Qahhor A. Asarlari. Birinchi jild. G'ofur G'ulom nomidagi adabyot va sa'nat nashriyoti. – Toshkent 1987. – 336 b.